
"Al-Xorazmiy" mahalla fuqarolar yig'ini hududida mini futbol o'yingohi foydalanishga topshirildi

Ayni kunlarda Farg'ona shahridagi mahalla fuqarolar yig'inlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qaroriga asosan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, "Al-Xorazmiy" MFY hududidagi 35 ta ko'p qavatli uylar tutash hududlarida 5 ta bolalar maydonchasi, 1 ta sport kompleksi qurilishi belgilangan. Hozirda bolalar maydonchalarida qurilish-montaj ishlari davom etmoqda. Mazkur ishlar uchun respublika byudjetidan 1 mlrd. 500 mln. so'm mablag' ajratilgan.

Bugun mahalladagi 26-maktab hududiga qurilgan mini futbol o'yingohining ochilish marosimi o'tkazildi. Unda shahar hokimi Vosiljon Nazarov, mahalla faollari, ta'lim muassasasi vakillari ishtirok etishdi. 9- va 11-sinf jamoalari o'rtasida ilk o'rtoqlik uchrashuvi tashkillandi.

2023-03-28 16:55:02